

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHKIL TOPISHI VA MA’MURIY HUDUDIIY BO‘LINISHI

Sayetova Genjexan Sagidullaevna

O‘zbekiston davlat sa’nat va madaniyat instituti Nukus filiali talabasi

Jiyemuratov Asadbek Seytmurat uli

Nukus davlat pedagogika instituti talabasi

Ja’abaeba Dilnoza Konisbay qizi

Nukus davlat pedagogika instituti talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonning tashkil topishi va ma’muriy-hududiy bo‘linishi haqida so‘z boradi.*

***Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston, Turkiston o‘lkasi, Xorazm Xalq Sovet Respublikasi, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi, ma’muriy bo‘linish.*

Hozirgi O‘zbekiston hududi 1917-yilga qadar ma’muriy jihatdan Turkiston general-gubernatorligi (Turkiston o‘lkasi) hamda Rossiyaning yarim mustamlakalari bo‘lmish Buxoro amirligi va Xiva xonligiga bo‘lingan edi. 1918-yil 30 aprelda Sho‘rolar 5-O‘lka syezdida tasdiqlangan "Rossiya Federatsiyasining Turkiston Sovetlar Respublikasi to‘g‘risida Nizom"da Turkiston Respublikasining davlat tuzumi, uning hududiy chegaralari belgilandi. 1924-yilga kelib Turkiston ASSR 6 viloyat (Sirdaryo, Samarqand, Farg‘ona, Zakaspiy, Yettisuv, Amudaryo)ga hamda 30 uezd va 473 volostga bo‘lib tashlanadi.

1920-yil aprelda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi e‘lon qilindi. Mazkur respublikaning hududi 28 tumanga bo‘lindi. 1924-yilda esa uch viloyat (Qozoq-Qoraqalpoq, Yangi Urganch, Toshhovuz) va Xiva tumaniga bo‘lindi.

1920-yilning 8 oktyabrida Buxoro amirligi negizida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi e'lon qilindi. Mazkur respublika hududi 15 viloyat, 58 tuman va 197 kentga bo'lingi. Shunday qilib, O'rta Osiyoda 3 sotsialistik deb atalgan davlat: Turkiston ASSR, BXSR va XXSR tuzildi.

1924-yilda O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish amalga oshirildi. Qadimdan bir mintaqada yashab kelayotgan turkiy xalqlar aholisining turmush tarzi, kelib chiqishi, an'analari, xo'jaligi, madaniyati, mushtarak maqsadlari bir bo'lishiga qaramasdan shu davrda beshga bo'lib yuborildi. Turkistonni milliy jihatdan qayta chegaralash Markaz va RK(b)P O'rta Osiyo byurosi tomonidan 1924-yilda qat'iy ishlab chiqilgan edi. Unga qarshi barcha urinishlar behuda ketardi. 1924-yil 10 mart kuni birlashgan kengashda mahalliy millat vakillari O'rta Osiyo Federatsiyasini tuzish, Turkistonning yaxlitligini buzish maqsadga muvofiq emasligini ta'kidlagan edilar. Xorazm rahbarlari ham alohida fikr bildirib, Xorazmni chegaralanishga qo'shmaslik masalasini qo'ygan edilar. Biroq, ushbu istaklar ushalmagan orzuligicha qolib ketdi.

1924-yil oxirida Turkiston, Buxoro, Xorazm Respublikalari o'rnida O'zbekiston SSR, Turkmaniston SSR, Tojikiston ASSR (O'zbekiston SSR tarkibida), Qoraqirg'iz (Qirg'iz) viloyati (RSFSR tarkibida) va Qoraqalpoq AO (Qozog'iston ASSR tarkibida) tashkil etildi. Mazkur davrda O'zbekiston SSR maydoni 312394 kv. km. tashkil etdi. Aholisi 4447,6 ming kishi bo'lib uning 74,2 foizi o'zbeklar edi (1926-yilgi aholi ro'yxati).

1925-yilning 29 yanvaridan respublikada yagona ma'muriy bo'linish joriy qilindi. Poytaxti Samarqand shahri bo'lgan O'zSSR 7 viloyat (Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Zarafshon, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm)ga va 22 uezd hamda 241 volostga bo'lingi. 1926-yilda mamlakatni ma'muriy-iqtisodiy rayonlashtirish ishlari amalga oshirildi. 1927-yilning boshida mamlakat tarkibida 10 ta okrug, 87 tuman, 1746 qishloq kengashi tashkil qilingan edi. Markazning ko'rsatmasi bilan O'zbekiston tarkibida bo'lgan Tojikiston Muxtor Respublikasi 1929-yildan sobiq SSSR tarkibidagi ittifoqdosh respublikaga aylantirildi. 1930-yil 17 avgustda

mamlakatni okruglarga bo'lish bekor qilindi. Biroq, oradan ko'p o'tmay, 1932-yil 27 iyunda Xorazm okrugi, 1935-yil fevralda esa Qashqadaryo va Surxondaryo okruglari qayta tiklandi. 1936-yilda Qoraqalpog'iston ASSR RSFSRdan olinib O'zbekiston SSR tarkibiga kiritildi. Bu vaqtga kelib O'zbekiston SSR tarkibida bir avtonom respublika, 3 okrug, 109 tuman, 22 shahar, 16 shaharcha va 1392 qishloq kengashi bo'lgan.

1938-yil 14 fevraldan boshlab mamlakatimiz hududini hozirdek viloyatlarga bo'lish joriy qilindi. O'sha yili Buxoro, Samarqand Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlari tashkil qilindi. 1941-yilning 6 martida Andijon, Namangan, Surxondaryo, 1943-yilning 20 yanvarida esa Qashqadaryo viloyati tashkil topdi.

1957-1961 yillarda Markaz region istiqbolini ko'ra olmasligi oqibatida ma'muriy-hududiy birliklar yana qator o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Jumladan, Namangan viloyatining hududi Farg'ona va Andijon viloyatlariga qo'shib yuborildi. Shuningdek, Qashqadaryo viloyati Surxondaryoga birlashtirildi.

Mamlakatimiz hududida yangi yerlarni o'zlashtirish jarayoni uning yangidan ma'muriy-hududiy bo'linishlariga birmuncha asos yaratib berdi. Masalan, Qarshi cho'lining o'zlashtirilishi bu yerda 1964-yil 7 fevralda Qashqadaryo viloyatining qayta tiklanishiga, Mirzacho'lning o'zlashtirilishi 1963-yil 16 fevralda Sirdaryo viloyatining tashkil topishiga, Farg'ona vodiysida ishlab chiqarish kuchlarining jadal rivojlantirilishi 1967-yil 18 dekabrda Namangan viloyatining qayta tiklanishiga, Jizzax cho'llarining o'zlashtirilishi 1973-yil 29 dekabrda Jizzax viloyatining tashkil qilinishiga olib keldi. 1982-yilning 20 aprelida mamlakatda kon-metallurgiya sanoatini rivojlantirishi natijasida Navoiy viloyati tashkil qilindi. Xullas, ana shu bo'linish mustaqillikgacha deyarli o'zgarmadi.

O'zbekistonning ma'muriy-hududiy bo'linishi mustaqillik yillarida sifat jihatidan yangi bosqichga-bozor munosabatlariga muvofiq keladigan bosqichga qadam qo'ydi. Mamlakat mustaqilligi tufayli o'zbek xalqining asriy orzusi ushaldi. O'zbekiston tinch, parlament yo'li bilan o'zining haqiqiy davlatchiligiga erishdi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, sho'rolar davrida ommaviy tus olgan va

sho'rolar tuzumini madh etuvchi joy nomlari bekor qilinib, aholi yashaydigan joylarning tarixiy nomlari tiklanmoqda yoki yangi nomlar berilmoqda.

Mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishida umuman, milliy iqtisodiyotning yuksalishida uning qanday ma'muriy-hududiy bo'linishlarga ajratilgani ham muhim rol o'ynaydi. 1992-yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi "O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-huquqiy tizimi" deb atalgan XVI bobining 68-moddasida shunday deyilgan: "O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat". Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona, Xorazm, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahridan tashkil topgan. O'z navbatida ular tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarga bo'linadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alimqulov N., Safarova N., Amanbaeva Z., Mo'minov D. Geografiya. T.: Info Capital Group, 2019, 240.
2. Iskenderov A., Uzakbaev K. Uluwma jer bilimi, – T.: Fan va texnologiya, 2019, 328 b.
3. Iskenderov A.B. Saliev E.P. Jaksimuratov A.B. QARAQALPAQSTAN GEOGRAFIYASÍ SABAĞÍNDA ARAL TEÑIZINIŃ GEOGRAFIYALIQ ÚYRENILIW TARIYXI//Aniq va tabiiy fanlarni masofaviy o'qitishning dolzarb masalalari. – 2023. C.150-153.
4. Iskenderov, A. B., & ulı Eshiniyazov, B. A. (2023). ÓZBEKSTAN AYMAĞÍNDA TURIZMNIŃ JAŃA TÚRLERINIŃ RAWAJLANÍWÍ. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(6), 217-220.

5. Iskenderov, A. B., & ulı Jaksimuratov, A. B. (2023). ANTIK DÁWIRDE ÁMIWDÁRYANIŃ GEOGRAFIYALÍQ IZERTLENIW TARIYXÍ. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(6), 221-224.
6. Iskenderov, A. B., & ulı Jaksimuratov, A. B. (2023). ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍNDÁ SOCIALLÍQ TARAWDÍ RAWAJLANDÍRÍWDA ÁMELGE ASÍRÍP ATÍRĠAN IS-ILAJLAR. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(6), 225-229.
7. Jaksimuratov, A. (2023). TARIXIY GEOGRAFIYANING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH TARIXI. *Interpretation and researches*, 1(13).
8. Saidboboyev Z. Tarixiy geografiya va kartografiya: O‘quv qo‘llanma. — Toshkent.: ShafolatNur Fayz, 2020, 160 b.
9. Saidboboyev Z. Tarixiy geografiya: Darslik. — Toshkent.: Noshir, 2010. 224.
10. Saidboboyev Z. Tarixiy geografiya: tarix bakalavriat yo‘nalishi talabalari uchun darslik. T.: Noshir, 2010, 224 b.
11. ulı Jaqsimuratov, A. B. (2023, January). ORTA AZIYA AYMAĠINDA ORTA ÀSIRLERDE GEOGRAFIYANIŃ RAWAJLANIWI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 838-841).
12. Uzakbaev K. K. Jaksimuratov A. B. QORAQALPOG‘ISTON GEOGRAFIYASINI O‘RGANISHDA XORAZMIY VA BERUNIYNING GEOGRAFIK ILMIY MEROSLARINING AHAMIYATI//Aniq va tabiiy fanlarni masofaviy o‘qitishning dolzarb masalalari. – 2023. C.150-153.
13. Uzakbaev, K. (2023). Qoraqalpog‘iston joy nomlarining geografik jihatdan tadqiq qilinishi. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*.